



1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan

Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2025-yil 18-dekabr, payshanba,
143 (24.173)-son

O'zbek xalq
maqoli

Ishli ish
orttirar,
ishsiz ish
qoldirar

Prezident farmoniga ko'ra



Arxiv faoliyati takomillashadi

Shu yilning 24-noyabr kuni davlatimiz rahbarining “Arxiv ishi sohasini raqamlashtirish va sohada boshqaruv samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmoni qabul qilindi.

Mamlakatimiz arxiv tizimida keng ko'lamli o'zgarishlar nazarda tutilgan farmon bilan arxiv sohasini 2030-yilga qadar raqamlashtirish, xizmatlar sifatini oshirish va sohada samarali boshqaruv tizimini yaratish asosiy maqsad etib belgilandi.

Xususan, Milliy arxiv fondi hujjatlari raqamlashtirilishi 60 foizga yetkaziladi, arxiv xizmatlari 100 foiz elektron ko'rsatishga o'tkaziladi va xizmat ko'rsatish muddatlari kamida uch baravar qisqartiriladi. Hujjatlarni klassifikatsiya qilish va tanish jarayonlarga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali hujjatlarni qayta ishlashda inson omili 50 foizga kamaytiriladi.

2026-yil 1-iyundan boshlab arxiv xizmatlarini raqamlashtirishda qo'llaniladigan amaldagi arxiv axborot tizimlari negizida Yagona milliy arxiv axborot tizimi joriy etiladi.

Bunda barcha raqamlashtirilgan va kelgusida raqamlashtiriladigan arxiv hujjatlari Arxiv axborot tizimiga kiritiladi va tizimda saqlanadi.

Arxiv hujjatlarini raqamlashtirish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

birinchi bosqichda (2025-2027-yillar) — alohida qimmatli va noyob hujjatlar, mol-mulk va yerga oid arxiv hujjatlari to'liq raqamlashtiriladi;

ikkinchi bosqichda (2028-2029-yillar) — kino, foto, fono va ilmiy-texnik arxiv hujjatlari raqamlashtiriladi;

uchinchi bosqichda (2030-yildan) — Milliy arxiv fondining boshqa arxiv hujjatlari raqamlashtiriladi; Agentlikning davlat arxivlarida saqlanayotgan alohida qimmatli va noyob hujjatlar harakatini avtomatlashtirish, ularning aniq hisobini yuritish va xavfsizligini ta'minlash ishlari RFID (radiochastotali identifikatsiya) texnologiyasi joriy etiladi.

Bunda **2026-yil 1-iyundan** boshlab O'zbekiston milliy arxivlarida va bosqichma-bosqich viloyat davlat arxivlarida saqlanayotgan hujjatlar bilan ishlashda RFID (radiochastotali identifikatsiya) texnologiyasi qo'llaniladi. RFID texnologiyasidan foydalanish orqali har bir arxiv hujjatiga unikal identifikatsiya raqami beriladi va ular Arxiv axborot tizimi bilan integratsiya qilinadi.

2026-yil 1-avgustdan boshlab bir qator davlat arxivlari funksiyalari to'liq raqamlashtirilgan holda amalga oshiriladi.

2026-yil 1-sentabrdan boshlab fuqarolarning oilaviy shajaralari bo'yicha ma'lumotlarni onlayn tarzda taqdim etish imkoniyatini beruvchi «Shajara» axborot tizimi joriy etiladi.

(Davomi 2-sahifada) >>>



Sportchilarimizdan
o'yinlarida 14

Para Osiyo
ta medal

Birlashgan Arab Amirliklarining Dubay shahrida bo'lib o'tgan V yoshlar Para Osiyo o'yinlarida mamlakatimiz para sportchilari 99 ta oltin, 57 ta kumush va 41 ta bronza medali bilan 35 davlat orasida umumjamoa hisobida birinchi o'rinni egalladi.

Musobaqada viloyatimizdan uch sport turi bo'yicha yetti nafar sportchi ishtirok etib, 5 ta oltin, 7 ta kumush va 2 ta bronza medalini qo'lga kiritdi.

Para yengil atletika bo'yicha Oybek Egamnazarov bittadan oltin va kumush, Elyorbek Elmamatov kumush, Gulnora To'ychiyeva 3 ta oltin, 2 ta kumush, Nozima Sadullayeva kumush va bronza medallariga sazovor bo'ldi. Para taekvondodan Karamatoy Rustamova oltin, Umida Mamarajabova kumush, para armrestling bo'yicha esa Akbar Bozorov kumush va bronza medallariga ega chiqdi.

"Zarafshon"ga murojaat



“Boqiy shahar”

atrofida yo'lovchilar uchun qachon bekatlar tashkil etiladi?

Samarqand tumanidagi Jo'yisoy mahallasida yashayman. Hudud-da bir necha yildan buyon yo'lovchilar uchun avtobus bekatlari o'rnatilmagani bois ushbu murojaatni yo'llayapman. Ko'chalarimiz ta'mirlangan bo'lsa-da, yo'lovchilar yozda quyoshda, qishda qor-yomg'ir ostida avtobus yoki taksi kutadi.

Samarqand xalqaro turizm markazi, “Boqiy shahar” jahon miqyosida o'tkazilayotgan turli anjumanlarga mezbonlik qilmoqda va bu yerga kelayotgan sayyohlar soni ham ortyapti. Albatta, bu quvonarli hol, biroq shu hududda istiqomat qiluvchi aholi uchun avtobus bekatlarining hanuzgacha o'rnatilmayotgani bizni ranjitmoqda.

Biz Samarqand shahridagi Panjacent va Abdurahmon Jomiy ko'chalari chorrahasida ixcham va to'rt yoki besh o'rindiqli bekat munasini ko'rdik. Ushbu turdagi ixcham bekatlarni bizning hududda ham qo'yishga hech qanday to'siq yo'q, deb o'ylaymiz.

“Boqiy shahar”dan Samarqand shahridagi 65-umumta'lim maktabigacha bo'lgan yo'nalishda harakatlanuvchi 77, 66, 60 va 3-avtobuslar to'xtash joylarini o'rganib chiqishni hamda ixcham bekatlar o'rnatib berishingizni so'raymiz.

Samarqand tumanining Qo'shtamg'ali, Jo'yisoy va Qoziariq mahallalarida istiqomat qiluvchi aholi, jumladan, farzandlarimiz, nevaralarimiz har kuni mazkur yo'nalishda ishga, o'qishga hamda boshqa yumush bilan hududlarga boradi. Shu bois mutasaddilar ushbu muammoni hal qilib bersalar yaxshi bo'lardi.

Firdavs BOLTAYEV,
pensioner.

Kun mavzusi



Shu yilning 10-dekabridan boshlab dori vositalarining elektron retsept asosida berilishi bilan bog'liq xabarlar ijtimoiy tarmoqlarda turlicha talqin etilgani bois aholida tushunmovchiliklar yuzaga keldi. Hatto ba'zi dorixonalar javobgarlikdan qo'rqqan holda barcha dori vositalari uchun retsept talab qila boshladi.



“Elektron retsept”:
xavotirga
o'rin yo'q

Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 8-sentabrdagi tegishli qarori bilan dori vositalari va tibbiy buyumlarni chakana realizatsiya qilish faoliyatini litsenziyalash pasportiga o'zgartish kiritildi. Unga muvofiq, 2025-yil 10-dekabrdan boshlab tajriba-sinov loyihasi amalga oshirilayotgan 15 ta tuman (shahar)da, 2026-yil yakuniga qadar esa respublikaning barcha hududlaridagi dorixonalar “Elektron retsept” moduli bilan belgilangan ma'lumotlarning real vaqt rejimida almashilishini ta'minlashi belgilangan. Samarqandda bu tajriba-sinov loyihasi Samarqand shahri, Ishtixon va Bulung'ur tumanlarida amalga oshirilmoqda.

Endilikda dori vositalarini xarid qilishda yurtdoshlarimiz dorixonaga albatta, shifokor tomonidan tizimga kiritilgan elektron retsept asosida murojaat etishlari tavsiya qilinadi.

“Elektron retsept” tizimini joriy etishdan ko'zlangan asosiy maqsad - davolash xavfsizligini oshirish va bemorlar salomatligini himoya qilish, shifokorlarning dori tayinlashdagi mas'uliyatini kuchaytirish, dori vositalarini tayinlash jarayonini tartibga solish, sog'liqni saqlash tizimida raqamli hisobga o'tish, shuningdek, kontrafakt yoki noto'g'ri qo'llanilayotgan dori vositalari aylanmasi bilan bog'liq xavflarni kamaytirishdan iborat. Tizimni butun respublika bo'yab kengaytirish 2026-yil oxirigacha bosqichma-bosqich amalga oshirilishi rejalashtirilgan bo'lib, bu - natijalarni tahlil qilish, aniqlangan tashkiliy va texnik muammolarni inobatga olgan holda amalga oshiriladi. Ko'zlangan maqsad - zaif jihatlarini aniqlash va to'liq joriy etishdan oldin mexanizmlarni takomillashtirishdan iborat.

Favqulodda holatlarda, shuningdek, bolalarga, keksa yoshdagi shaxslarga va surunkali kasallikka chalingan bemorlarga

tibbiy yordam ko'rsatishda hech kim zarur dori vositalarisiz qolmaydi. Ushbu toifadagi bemorlar alohida nazoratda bo'ladi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, dori vositalari retseptli va retseptsiz turlarga bo'linadi. Allergik kasalliklar, shamollashlarga qarshi, og'riqni qoldiradigan, oshqozon-ichak kasalliklariga qarshi qo'llaniladigan dori vositalarining bir necha turlari retseptsiz beriladi. Umuman, o'rtacha 1800 dan ortiq dori vositalari retseptsiz sotiladi. Qolaversa, tibbiyot muassasalarida shifokorlarning navbatchiligi tashkil etilgan bo'lib, har bir bemor shifokorga murojaat qilgan holda o'ziga zarur bo'lgan dorilarni shifokor ko'rsatmasi bilan elektron retsept asosida sotib olishi mumkin.

Dori vositalarini retseptli yoki retseptsiz berilish tartibini belgilash ularni davlat ro'yxatidan o'tkazish davrida aniqlanib, tegishli yo'nalishdagi shifokor mutaxassislar tomonidan xulosalar rasmiylashtirilgach, tasdiqlanadi.

Surunkali xastaligi bor bemorlarga ambulator sharoitda retsept yozilganda, anabolik faollikka ega ayrim dori vositalari istisno tariqasida 60 kunlik, ba'zi dori vositalari esa 90 kunlik davolash kursiga yetarli miqdorda belgilanishi ko'rsatilgan. Shuningdek, bunday bemorlarga “Elektron retsept” bo'yicha kafolatlangan paketga kiritilgan dori vositalari dorixonalar tomonidan reimbursatsiya dasturi asosida 30 kunlik davolash kursiga yetarli miqdorda bepul beriladi.

“Elektron retsept” tizimi bilan ishlash bo'yicha dorixona xodimlari maxsus o'quvlardan o'tdi, qolaversa, mazkur tizim bo'yicha murojaatlarni qabul qilish uchun @ssv_pilotbot telegram boti tashkil etildi.

Diidshod ShAMSIIYEV,
Farmasevtika tarmog'ini
rivojlantirish agentligi viloyat hududiy
bo'linmasi rahbari.

Bosh archa teatr oldida joylashtirildi

Yangi yilni ko'tarinki kayfiyatda qarshi olish, aholi va mehmonlar uchun unutilmas bayram muhitini yaratish maqsadida viloyatimizning barcha shahar va tumanlari markazida bayram archalari o'rnatilmoqda.

Viloyatning bosh archasi Samarqand shahridagi Ko'ksaroy maydonida, viloyat musiqali drama teatri oldida joylashtirilib, maydon bayram ruhiga mos tarzda bezatilmoqda.

Shuningdek, Temiryo'l vokzali maydoni, Sartepa, Qorasuv massivlari, Kimyogarlar qo'rg'oni va “Yoshlik” istirohat bog'ida bayram archalari o'rnatilmoqda. Aholiga bayramona kayfiyat ulashish maqsadida bayram arafasida shahar jamoat transportida yo'lovchi tashish xizmati Qorbobo va Qorqiz qiyofasidagi 150 nafar haydovchi tomonidan amalga oshirilishi rejalashtirilgan.

Ayni vaqtda Samarqand shahrining markaziy ko'chalarida joylashgan korxona, tashkilot va muassasalar, savdo, umumiy ovqatlanish hamda servis xizmati ko'rsatish obyektlari bayram ruhida, zamonaviy yoritish vositalari bilan bezatilmoqda. Shahardagi bozorlarda, savdo yarmarkalari hamda Alisher Navoiy ko'chacida turli mahsulotlar va sovg'alarni sotiladigan rastalar tashkil etiladi. Bayram tadbirlari 20 dekabrdan boshlanadi va hududlarda madaniy dasturlar, tomoshalar namoyish etiladi.

Barcha samarqandliklar va mehmonlarni Yangi yil bayramiga bag'ishlangan tomoshalarga taklif etamiz!

YANGI YIL ARCHASI O'RNATILADIGAN HUDUDLARDA TRANSPORT VOSITALARI HARAKATI VAQTINCHA CHEKLANADI
Yangi yil bayrami tadbirlari o'tkaziladigan

hududlarda jamoat xavfsizligini ta'minlash maqsadida shu yil 20-dekabrdan 2026-yilning 10-yanvariga qadar Samarqand shahridagi quyidagi ko'chalarda transport vositalarining harakati vaqtincha cheklanadi:

— Amir Temur maydonidan viloyat musiqali drama teatriga kirish ko'chasi va Ko'ksaroy maydoni hududida;

— Beruniy ko'chasining Rudakiy ko'chasi bilan kesishgan chorrahasidan Temiryo'l vokzali oldi maydonigacha bo'lgan qismida;

— Sartepa massivi Turkiston ko'chasining TATU Samarqand filiali akademik litseyi oldidan o'tgan 200 metr qismida;

— Kimyogarlar shaharchasi Umid ko'chasining Ziyokorlar ko'chasi bilan kesishgan chorrahasidan Darg'om ko'chasigacha bo'lgan qismida;

— “Yoshlik” istirohat bog'ining Beruniy ko'chasi va Bag'dod ko'chasi tomonidan kirish qismlarida;

— Qorasuv massividagi “Yangi O'zbekiston” bog'iga kirish ko'chalarida.

Samarqand shahar hokimligi axborot xizmati.





URGUTda YANGI DAVR BOSHLANMOQDA



Davlatimiz rahbarining 25-noyabr kuni viloyatimizga tashrifi davomida Urgutda bo'lib, tumanni yanada rivojlantirish, aholi turmush darajasini oshirish uchun bir qator muhim tashabbuslarni bildirganini urgutliklar shunday e'tirof etmoqda.

HUDUD RIVOJI, AHOLI FAROVONLIGINI KO'ZLAB

Urgut respublikamiz tumanlari ichida aholisi eng ko'p – 600 mingdan ortiq odam istiqomat qilayotgan hudud hisoblanadi. Ayni paytda aholining iqtisodiy faol qatlami 207 ming nafarni tashkil etadi va ularning 197 ming nafari foydali mehnat bilan band.

Joriy yilning to'qqiz oyida tumanida 29 mingdan ortiq ish o'rni yaratilib, ishsizlik darajasi 4,7 foizga tushgan. Yil boshida 11597 (9,1 foiz) kambag'al oila reestriga kiritilib, 1-noyabr holatiga ularning 4570 tasi kambag'allikdan chiqarilgan.

Tumanda o'tkazilgan yig'ilishda Prezidentimiz barcha imkoniyatlarni safarbar qilib, kelasi yil kambag'allik va ishsizlikni 2 foizdan tushirish kerakligini ta'kidladi.

2017-yilda "Urgut" erkin iqtisodiy zonasini tashkil qilinishi natijasida shu paytgacha 860 million dollarlik 74 ta loyiha amalga oshirildi va Urgut sanoatlashgan hududga aylandi. Bugungi kunda tuman viloyat sanoatida uchinchi o'rinda, servisdagi to'rtinchi o'rinda turadi.

Bu yil Samarqand shahridan Urgut tumaniga 55 kilometr masofaga temir yo'l tarmog'i qurildi va yiliga 359 ming yo'lovchi hamda 8,2 million tonna yuk tashish imkoniyati yaratildi. Prezident Shavkat Mirziyoyev bu gal Urgutga ana shu yangi temir yo'l orqali poyezdda keldi.

Vokzalda tuman jamoatchiligi vakillari bilan uchrashuvda, shuningdek, xalq deputatlari viloyat Kengashining navbatdan tashqari sessiyasida davlatimiz rahbari Urgutni yanada rivojlantirish, tadbirkorlik uchun imkoniyatlarni kengaytirish va aholi uchun zamon talablariga mos turmush sharoitlari yaratish yuzasidan vazifalarni belgilab berdi.

Jumladan, mahallalar infratuzilmasini yaxshilash uchun 2026-yilda tumanga 260 milliard so'm ajratilishi aytiladi. Misol uchun, Tinchlik mahallasi hududidan logistika markazi qurish uchun 5 gektar joy ajratilib, 5 milliard so'mlik infratuzilma qilib beriladi va 100 ga yaqin do'kon, oshxona va servis obyektlari quriladi.

Shuningdek, 8 mahalla infratuzilmasi uchun Islom taraqqiyot bankidan 10 million dollar jalb qilinadi. Tojikiston bilan chegaradosh 15 mahallada mehmon uyi va dam olish maskani qurishga 10 milliard so'm resurs yo'naltiriladi.

Tuman markazidagi 1,5 kilometrli Navoiyshoh ko'chasini tunu kun ishlaydigan maskanga aylantiriladi. Bu yerda 60 ta

savdo-servis obyekti tashkil etilib, 500 ta ish o'rni yaratiladi.

2 ming gektar g'alla va 3,5 ming gektar tamaki yer maydonlari meva-sabzavot ekishga o'tkaziladi. Yangi o'zlashtirilayotgan 5,5 ming gektar yerda yuqori daromad beradigan eksportbop mahsulotlar yetishtiriladi.

500 gektar tog'oldi va yaylov hududlarida sanoatlashgan uzumzor tashkil etilib, aholiga bo'lib beriladi.

Ushbu yerlarga suv olib chiqish maqsadida artizan qudug'i qazish, 15-20 kilovattli quyosh paneli o'rnatish xarajatlari uchun 30 milliard so'm arzon resurs beriladi.

Tumanda mavjud yaylovlardan samarali foydalanib, qo'shimcha ravishda 40 ming bosh qo'y-echki boqish yo'lga qo'yiladi.

URGUTLIK LAR NING KAYFIYATI A'LO

Davlatimiz rahbari har gal uchrashganimizda "urgutliklarning kayfiyati qanday?" deb so'raydilar, – **deydi "Nuroni" jamg'armasi Urgut tumani bo'limi raisi Farmon Azizov.** – Urgut bugun shunchalik o'zgarib, islohotlar markaziga aylanganiki, bundan xalqimiz juda xursand, kayfiyati a'lo darajada. Ayniqsa, Prezidentimizning tumanimizga bu galgi tashriflaridan so'ng odamlarda yangi kuch-g'ayrat, jo'shqinlik paydo bo'ldi. 25 noyabr kuni davlatimiz rahbari Urgutga yangi temir yo'lida poyezd bilan keldilar. Yo'l davomida keyingi yillarda viloyatimizda, jumladan, Urgutda amalga oshirilgan ishlar haqida gapirib, bu ishlar ko'lami yanayam kengayishini aytdilar. U kishining tashabbusi bilan bundan sakkiz yil oldin "Urgut" erkin iqtisodiy zonasining tashkil etilishi tumanimizda tadbirkorlik, sanoatni yanada rivojlantirishga imkoniyat yaratdi. Bugun 1,5 mingga yaqin katta-kichik korxona faoliyat ko'rsatmoqda va bu zavod-fabrikalarda minglab urgutliklar ishlaymoqda.

Bir paytlar ishsizlik eng katta muammo bo'lgan Urgutda bugun bekorchilik odamini topish qiyin. Ko'plab tadbirkorlarimiz o'z korxonasiga qo'shni tumanlardan ishchilarni jalb qilmoqda. Kambag'al oilalar kamaymoqda. Ish o'rni, doimiy daromad manbai bo'lganidan so'ng odamlar ro'zg'or tebratishga qiynalmayapti, orzu-niyatlariga yetyapti.

Prezidentimiz tumanimizdagi yirik ishlab chiqarish korxonasida o'tkazilgan yig'ilishda Urgutda 100 ming kishilik yangi shaharcha qurilishini aytdilar, mahallalar infratuzilmasini yaxshilash uchun katta miqdorda mablag' ajratilishi sanoatni, turizmni yanada rivojlantirish uchun tadbirkorlarga ko'plab imtiyozlar beriladigan bo'ldi. Bu Yurtboshimizning Urgutga va urgutliklarga bo'lgan juda katta e'tiborlari, g'amxo'rliklari natijasidir.

"YANGI O'ZBEKISTON" MASSIVI YONIDA YANGI SHAHARCHA QURILADI

Urgutdagi yig'ilish chog'ida davlatimiz rahbari bugungi kunda tuman markazidagi 24 ta mahallada 100 mingga yaqin aholi istiqomat qilishi, ular uy-joy, kanalizatsiya, ichimlik suvi, maktab, bog'cha, shifoxona, biznes infratuzilmasi bilan bog'liq masalalar yechimini anachadan beri kutayotganini alohida ta'kidladi.

Ana shu jihatlar hisobga olingan holda Urgut markaziga "Yangi O'zbekiston" qiyofasini olib kirib, yurtimizdagi eng zamonaviy va ko'rkam shaharlardan biriga aylantirish bo'yicha alohida qaror qabul qilangani aytiladi.

Bugungi kunda tumani-mizda 650 mingga yaqin aholi istiqomat qiladi va keyingi yillarda ularni uy-joy bilan ta'minlash maqsadida urbanizatsiya, renovatsiya dasturlariga alohida e'tibor qaratilmoqda, – **deydi Urgut tumani hokimi o'rinbosari Sohib Xudoyberdiyev.** – Prezidentimizning Quyi Kamangaron mahallasidagi "Yangi O'zbekiston" massiviga

tutash hududdan 90 gektar yer ajratib, zamonaviy urbanistik asosida 100 ming aholiga mo'ljallangan zamonaviy eko-shahar barpo etishga oid qarorlari bu borada tumanimiz uchun tarixiy qaror bo'ldi. Mazkur hujjatga ko'ra, yo'l, suv, kanalizatsiya, elektr, maktab, bog'cha, shifoxona va boshqa infratuzilma obyektlarini qurish, tadbirkorlik loyihalari uchun 50 million dollar ajratiladi. 3 gektar maydonda tuman hokimligi va 35 ta tashkilot uchun yagona ma'muriy markaz quriladi. Biz ushbu tarixiy qaror qabul qilingan kunning o'zida ishga kirishib, hududning topografik syomkasi, loyiha smeta oldi hujjatlari va bosh rejalari tayyorlovchilarga kirishdik. Bu shaxsan viloyat hokimining nazoratida turibdi va har kuni kunlik ishlar yuzasidan hisobot berib boryapmiz.

Prezidentimiz yangi shaharcha qurilishida xorij tajribasini o'rganish va kerak bo'lsa, chetdan mutaxassislarni olib kelib, loyihani zamon talablariga mos, mukammal holda ishlab chiqish topshirig'ini berдилar. Hozirda tegishli vazirlik va idoralar bilan birgalikda bu borada ish olib boryapmiz. Dastlabki rejalarimizga ko'ra, yangi shaharchada qurilish ishlari 2026-yilda boshlanadi va to'rt bosqichda amalga oshiriladi. Nasib etsa, ikki-uch yilda zamonaviy qiyofadagi, ko'rkam shaharcha paydo bo'ladir.

Qayd etish lozim, mazkur hududda bugungi kunda 39,2 gektar maydonda "Yangi O'zbekiston" massivi bunyod etilmoqda. Bu yerda 58 ta ko'p qavatli uy, 4 ta maktab, 4 ta bog'cha, poliklinka va boshqa obyektlar qurilmoqda.

Tuman hokimi o'rinbosarining aytishicha, yangi shaharcha qurilishi haqidagi qarorni qurilish-pudrat tashkilotlari va ularning ishchilari ham juda katta xursandchilik bilan qabul qildi. Ular "Yangi O'zbekiston" massivi qurilish ishlari yakunlanganidan so'ng tender tanlovlari qatnashib, yangi shaharcha qurilishida ham ishtirok etish niyatida.

TADBIRKORLAR NAMUNA

BO'LMQOCHI

Prezident tashrifi, ayniqsa, urgutlik tadbirkorlarda o'zgacha g'urur uyg'otdi, ularga g'ayrat-shijoat bag'ishladi. Chunki Shavkat Mirziyoyev 2016-yilda tumanga kelganida Urgutni sanoat zonasiga aylantirish tashabbusini ilgari surib, tadbirkorlar uchun yanada keng imkoniyatlar yaratilishi, imtiyozlar berilishini aytgandi. O'tgan davr mobaynida bu maqsadlar amalga oshdi, tuman chinakam tadbirkorlar maskaniga aylandi.

Majidxon Islomov ham davlat rahbari yaratib bergan imkoniyatlar tufayli tadbirkorlik faoliyatini boshlab, bugun "Urgut" erkin iqtisodiy zonasidagi o'z brendini yaratayotgan korxonalardan birining rahbariga aylangan.

– Prezidentimizning Samarqandga tashriflari go'yoki Urgutga tashrifdek bo'ldi, – **deydi "Urgut INI tekstil" korxonasi rahbari Majidxon Islomov.** – Yig'ilish davomida Urgut bo'yicha alohida vazifalar, topshiriqlar berildi, viloyat hayoti bilan bog'liq masalalarda ham Urgut misol keltirildi. Eng muhimi, tadbirkorlikni rivojlantirish uchun yana ko'plab imkoniyat va qulayliklar bo'lishi, trillion-trillion so'm mablag' ajratilishi aytiladi. Bu juda katta gap va biz ham bunga munosib bo'lib, ishlab chiqarish hajmini oshirishimiz, yangi ish o'rinlari ochishimiz, yoshlarni tadbirkorlikka o'rgatishimiz kerak. Davlatimiz rahbari shuncha imkoniyat yaratib berish bilan birga faoliyatimizda qanday muammolarga duch kelayotganimiz bilan qiziqdilar, taklif so'radilar. Men ham biz tadbirkorlarga bo'lgan e'tiborlari uchun minnatdorlik bildirish maqsadida so'z so'ragandim. U kishi esa taklif aytgini, dedilar va ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash maqsadida ijtimoiy do'konlar tashkil etish haqida taklif berdim. Chunki o'zimizning ham boshimdan o'tgan, yangi ish boshlagan tadbirkor bozorda o'z o'rniga ega bo'lib, mahsulotining doimiy xaridorlarini topishiga ancha vaqt ketadi. Shunday vaziyatda ijtimoiy do'konlarning bo'lishi ishlab chiqaruvchiga mahsulotini birinchi qo'l sifatida xaridorga arzon narxda taklif etib, xaridor orttirishiga katta yordam bo'ladi. Prezidentimiz bu taklifimni ma'qulladilar va o'sha yerning o'zida mutasaddilarga topshiriq berдилar. Nasib etsa, buni Urgut tajribasi sifatida ko'rsatib, butun mamlakatimizga ommalashtiramiz.

Davlatimiz rahbari 2016-yilda tumanimizga kelganlarida Urgutni sanoat zonasini qilamiz, degandilar. Keyin bu haqda qaror qabul qildilar va bugun Urgutda 1000 dan ortiq korxona ishlab turibdi. Bu galgi tashriflari ham viloyatimiz, jumladan, Urgutni yanada taraqqiy ettirish uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochdi. Samarqandni boshqa hududlarga namuna bo'ladigan metodik viloyatga aylantiramiz, dedilar. Bu ezuq maqsadga erishish uchun biz tadbirkorlar ham o'z hissamizni qo'shamiz.

Xullas, bugun kattayu kichik urgutlikning so'ziga quloq tutsangiz Prezidentning Urgutga kelgani va juda katta bunyodkorlik ishlari boshlangani, yirik dasturlarni amalga oshirishga kirishilganini aytadi, o'zi ham bu jarayonning faol ishtirokchisi bo'lishga intilayotganini bildiradi. Aslida, xalqning hamjihatligi, birligi ana shunday pallada namoyon bo'ladi, ulug' ishlar shu tarzda boshlanadi.

G'olib HASANOV, Alisher ISROILOV (surat).



Arxiv faoliyati takomillashadi

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

«Shajara» axborot tizimida quyidagi imkoniyatlar yaratiladi:

«FHDYning yagona elektron arxivi» axborot tizimidagi dastlabki ma'lumotlar, davlat arxivlarida hamda idoraviy arxivlarda saqlanayotgan arxiv hujjatlari asosida oila shajarasi bo'yicha ma'lumotlarni shakllantirish xizmatini ko'rsatish;

X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazining DNK ma'lumotlari xizmati orqali fuqarolarning etnik kelib chiqishi haqidagi ma'lumotlarni aniqlash;

sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida oila shajarasiga oid arxiv hujjatlari ma'lumotlarini tahlil qilish va oilaviy bog'liqlikni aniqlash;

oilal shajarasiga oid ma'lumotlarning saqlanishi, maxfiyligi hamda himoya qilinishini ta'minlash.

oilal shajarasini shakllantirish xizmati davlat xizmatlari markazlari hamda Yago-

na interaktiv davlat xizmatlari portali orqali ko'rsatiladi.

2026-yil 1-noyabrdan boshlab tashkilotlar, shu jumladan, nodavlat arxivlar o'zlarida saqlanayotgan arxiv hujjatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni davlat arxivlariga Arxiv axborot tizimi orqali onlayn taqdim etadi. Davlat arxivlarining jamlash manbalari bo'lgan tashkilotlarga nodavlat arxivlar tomonidan pulli xizmatlar ko'rsatishda davlat arxivining roziligini olish amaliyoti bekor qilinadi. Davlat arxivlari o'quv zallari foydalanuvchilariga arxiv hujjatlarini vaqtincha foydalanishga berish muddati ikki oygacha uzaytiriladi.

Ko'chmas mulk obyektlariga kadastr pasportini rasmiylashtirish va ularga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishda davlat arxivlarining mulkiy huquqlarni



aniqlash bo'yicha arxiv ma'lumotnomalari faqat davlat xizmatlari markazi yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orq-

li olinadi. Davlat xizmatlari markazi yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali olingan arxiv ma'lumotnomasi davlat arxividagi yer va mol-mulkka doir hujjatga muvofiqligi Arxiv axborot tizimi orqali tekshiriladi.

2026-yil 1-martdan boshlab arxiv hujjatlari yoki ularning ko'chirma nusxalarini O'zbekiston Respublikasidan tashqariga vaqtincha olib chiqish uchun ruxsatnoma berish muddati 15 ish kunidan 5 ish kunigacha, yaroqsiz holatga kelgan yoki yo'qotilgan mehnat daftarchasidagi yozuvlarni tasdiqlash muddati 20 ish kunidan 10 ish kunigacha, oliy va o'rta-maxsus ta'lim muassasasida o'qiganlikni tasdiqlash haqidagi arxiv ma'lumotnomasini berish muddati 5 ish kunidan 2 ish kunigacha, arxiv hujjatlari, kitoblar va qo'lyozmalar-

ni raqamlashtirish (elektron nusxa olish) xizmatlarini ko'rsatish muddatlari 3 ish kunidan 1 ish kunigacha qisqartiriladi.

2026-yil 1-yanvardan boshlab O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi arxivining hududiy filiallari tugatiladi hamda ularda saqlanayotgan arxiv hujjatlari belgilangan tartibda tegishli Qoraqalpog'iston Respublikasi va Toshkent shahar markaziy davlat arxivlari hamda viloyat davlat arxivlariga, ular foydalanayotgan bino qismi Agentlikning hududiy boshqarmalariga o'tkaziladi.

Viloyat, tuman (shahar) shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivlari tugatiladi hamda mazkur arxivlarning vazifa va funksiyalari Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahar markaziy davlat arxivlari, viloyat, tuman (shahar) davlat arxivlariga o'tkaziladi.

Jamol XUSHMANOV, viloyat arxiv ishi hududiy boshqarmasi bosh mutaxassisi.

Bino va inshootlar tashqi ko'inishi

qay tartibda o'zgartiriladi?

Buning uchun ruxsatnoma kerakmi?

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-apreldagi 200-son qaroriga muvofiq bino va inshootlarning tashqi ko'rinishini o'zgartirishni kelishish bo'yicha ma'muriy reglamentiga asosan davlat xizmatlari ko'rsatiladi.



Ushbu reglamentning amal qilishi bino va inshootning hajmi va maydonini o'zgartirmasdan turib ko'cha (ko'chalar)dan ko'rinadigan old va yon fasadlar (fasad maydonining 25 foizidan ortiq qismi)dagi arxitekturaviy elementlar (sokoli, quyoshdan himoyalash elementlari, parapetlari, ustunlari, tomi, derazalari, peshayvoni, ayvonlari va shu kabilar)ning rangi, konfiguratsiyasi va o'lchamlari o'zgartirilishiga tatbiq etiladi.

Bino va inshootning, yakka tartibdagi uy-joyning tashqi ko'rinishini o'zgartirish bo'yicha agar bino va inshoot, yakka tartibdagi uy-joy magistral ko'chalar, xalqaro, davlat ahamiyatiga ega bo'lgan avtomobil yo'llari bo'ylab joylashgan hollarda fasad maydonining 25 foizidan ortiq qismidan qat'i nazar kelishish talab etiladi.

Yakka tartibdagi uy-joylar, tumanlarning ma'muriy markazi bo'lma-gan shaharchalarda, qishloq aholi punktlari (qishloq va ovullar)da hamda aholi punktlari tashqarisida joylashgan bino va inshootlarning tashqi ko'rinishini o'zgartirish uchun kelishish talab etilmaydi.

Bino va inshoot fasadining eskiz loyihasi tegishli litsenziyasi bo'lgan loyiha tashkiloti tomonidan ishlab chiqiladi.

Bino va inshootning tashqi ko'rinishini o'zgartirgandan so'ng obyektzni foydalanishga qabul qilish talab etilmaydi.

Ariza beruvchilar Davlat xizmatlari markazlariga o'zi kelib murojaat etadi yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida davlat xizmatidan elektron shaklda mustaqil ravishda foydalanish imkoniyati yaratilgan.

So'rovnoma bino va inshoot fasadining eskiz loyihasi elektron ko'rinishda ilova qilinadi.

Shundan so'ng vakolatli organ so'rovnoma tushgan kundan boshlab besh ish kuni mobaynida QR-kod qo'yilgan bino va inshootning tashqi ko'rinishini o'zgartirish kelishilganligi haqida xulosa beradi yoki rad etishning aniq sabablarini va qonunchilik hujjatlari normalarini ko'rsatgan holda kelishishni rad etadi.

Rustam NORIQULOV,
Samarqand shahar adliya bo'limi DXM bosh mutaxassisi.

“Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasida O'zbekistonni Markaziy Osiyodagi IT xabga aylantirish asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan. Shu asosida viloyatda ham raqamli texnologiyalar sohasini rivojlantirish borasida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Viloyat Matbuot uyida Raqamli texnologiyalar vazirligi viloyat hududiy shu'ba boshlig'i Dilmurod Xo'jamberdiyev va soha mutasaddilari ishtirokida o'tkazilgan matbuot anjumanida bu haqda batafsil ma'lumot berildi.

Ta'kidlanishicha, viloyatda aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi yil yakunida 2 trillion 700 milliard so'mga, IT Park rezidentlari tomonidan ko'rsatilgan eksport xizmatlari hajmi 18 million dollarga yetishi kutilmoqda. Bu esa so'nggi uch yilda sohada ko'rsatilgan xizmatlar ikki baravardan ziyod ortishini ko'rsatadi.

– Sohada soliq va moliyaviy imtiyozlar berilishi natijasida IT Park rezidentlari 2030-yilgacha foyda solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i va ijtimoiy soliqlardan ozod etilgan, – deydi D.Xo'jamberdiyev. – Shuningdek, “Yagona darcha” tizimi orqali litsenziyalash va rezidentlik olish osonlashtirilgan. Kadrlar tayyorlash bo'yicha “Bir million dasturchi” onlayn IT ta'lim platformasi joriy etilgan bo'lib, “IT Academy”, “Astrum IT Academy”, IT Park akademiyalari, “School-21”, Muhammad al-Xorazmiy vorislari, hududlarda IT-shaharchalar hamda “Besh million sun'iy intellekt yetakchilari” loyihalari ishga tushirilgan va har yili 100 mingga yaqin yoshlar IT sohasida bepul o'qitilmoqda. Eksport va xalqaro bozorga chiqish imkoniyatlarini oshirish hamda xorijiy buyurtmalarni jalb qilish uchun Germaniya, AQSh, Koreya, Saudiya Arabistoni, Yaponiya va Xitoy davlatlarida IT Park vakilliklari tashkil etilgan.

Matbuot anjumanida kelgusi yillarda sohani rivojlantirish bo'yicha amalga oshiriladigan

Samarqand shahrida zamonaviy IT park quriladi



ishlar haqida ham ma'lumot berildi. Qayd etilishicha, kelgusi yillarda viloyatning barcha aholi yashash maskanlari to'liq mobil aloqa va internet bilan ta'minlanib, olis hududlarda yo'ldosh aloqa texnologiyalari joriy etiladi. Shuningdek, 2030-yilga qadar 300 ming nafardan ziyod aholi va yoshlar sun'iy intellekt, raqamlashtirish, dasturlash va boshqa yo'nalishlarda o'qitiladi. TATU Samarqand filialida sun'iy intellekt bo'yicha o'quv laboratoriya tashkil etilib, Samarqand shahrida ikkita zamonaviy IT Park qurilishi rejalashtirilgan.

– Hozirda Samarqand shahridagi

“School-21” raqamli texnologiyalar maktabi hududidan yer maydoni ajratilgan bo'lib, 2026-yilda IT Park qurilishi boshlanadi, – deydi D.Xo'jamberdiyev. – Qorasuv massivida ajratilgan 80 sotix yer maydonida esa yoshlar ishlari agentligi bilan hamkorlikda yoshlar texnoparki qurish bo'yicha kelishuvga erishilgan. Shu bilan birga, 2026-yilda Muhammad al-Xorazmiy vorislari loyihasini ishga tushirish va 2030-yilga qadar 25 ming nafardan ziyod yoshlarni bepul axborot texnologiyalari va xorijiy tillarga o'qitishni maqsad qilganmiz.

F.RO'ZIBOYEV.

Giyohvandlik moddasi saqlayotganlar chuv tushdi

Viloyat transportda xavfsizlikni ta'minlash boshqarmasi xodimlari tomonidan o'tkazilgan tezkor-profilaktik tadbirda Samarqand shahri Nurlil yo'l mahallasi, Gagarin ko'chasida yashovchi fuqaro X.R. “Samarqand-Toshkent” yo'nalishidagi “Afrosiyob” tezyurar yo'lovchi poezdiga chiqish uchun asosiy nazorat o'tish joyidan o'tayotganda patrul-post xizmati xodimlarida shubha uyg'otdi.

Fuqaro metall detektor yordamida tekshirilganda X.R. kurtkasi o'ng cho'ntagidan bir dona o'ralgan oq qog'oz bo'lgi aniqlangan. Xolislars ishtirokida ushbu o'ram ochib ko'rilganda o'tkir hidli, yashil rangli “marixuana” giyohvandlik moddasi o'xshash quritilgan o'simlik hujjatlashtirilib, sudga oid kimyoviy ekspertiza tayinlandi.

Oqdaryo tumanining Yangiqo'rg'on mahallasida yashovchi U.A.ning yashash uyi va yordamchi xo'jalik xonalarida tintuv o'tkazilganida, uyining yerto'lasida poletelin qopda og'irligi 2283,87 gramm bo'lgan “marixuana” giyohvandlik moddasi qonunga xilof ravishda saqlab kelayotganligi ma'lum bo'ldi.

Mazkur holat yuzasidan Oqdaryo tumani ichki ishlar bo'limi tomonidan Jinoyat kodeksining 273-moddasi 5-qismi bilan jinoyat ishi qo'zg'atildi.

Abdulla IBRAGIMOV,
viloyat transportda xavfsizlikni ta'minlash boshqarmasi JQB tezkor vakili.

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

DA'VOLAR BO'LSA...

Narpay tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Eshniyozov Dilshod Qurbonovich notarial idorasida marhum Tog'ayev Mirzaqul Quziyevichga (2024-yil 3-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Eshniyozov Dilshod Qurbonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Narpay tumani “Salovot” MFY.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Zikirova Shahlo Habibovna notarial idorasida marhum Minosyan Marina Gennadevnaga (2025-yil 17-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Zikirova Shahlo Habibovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 156-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Faxriddinov Ilxom Djalolovichga (2001-yil 19-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 80-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Faxriddinova Gulnoza Ilxomovnaga (2021-yil 17-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 80-uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasida marhum Iriskulov Baxtiyor Djurabayevichga (2025-yil 3-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.

OCHIQ NAMUNAVIY DARSGA TAKLIF ETAMIZ!

Samarqand davlat pedagogika instituti aniq va amaliy fanlar fakulteti tasviriy san'at va texnologik ta'lim kafedrasini v.v.b. professori Jo'rayev Hamza Hamroqulovich tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lim yo'nalishi 3-bosqich 303-guruh talabalariga tasviriy san'at tarixi fanidan “Реализм в искусстве Узбекистана XX века. Живопись в искусстве Узбекистана периода Независимости” mavzusida ochiq seminar mashg'ulotini tashkil qiladi.

Mashg'ulot 2025-yil 20-dekabr kuni 4-juftlikda, ijodiy zal, magistrlar xonasida bo'ladi. Darsga barcha qiziquvchilar taklif etiladi.

Manzil: Samarqand shahri Spitamen shohko'chasi, 116-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Baxadirova Ishrokiyaga (2025-yil 23-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 80-uy.

Oqdaryo tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Sa'dullayev Jamshidxon Safoxonovich notarial idorasida marhum Nurmatov Salaydinga (2017-yil 12-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Sa'dullayev Jamshidxon Safoxonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Oqdaryo tumani Loyish shaharchasi Amir Temur ko'chasi.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Islomov Shuhrat Qarshiboyevich notarial idorasida marhum Mamatkulov Saytkul Sanakulovichga (2025-yil 30-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Islomov Shuhrat Qarshiboyevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 13-uy.

BEKOR QILINADI

Sotuvchi Oripov Shavkat Obidovich va sotib oluvchi Sayfiddinov Laziz Faxriddinovichlar o'rtasida Samarqand tumani “Yuqori Chordara” MFY, Do'stlik ko'chasi 339-sonli uy turidagi ko'chmas mulk uchun tuzilgan, Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasidan 2024-yil 29-iyulda tasdiqlanib, Ksh 150180

SA blankada tuzilgan, 202401714004425 raqam bilan reestrga kiritilgan oldi-sotdi shartnomasining sotib oluvchidagi nusxasi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Hadaya qiluvchi Kasimov Zafar Ismatulloyevich nomidan ishonchnoma asisida Qosimova Xosiyat Ismatulloyevichlar o'rtasida Samarqand shahri “Semurg” MFY, Narpay ko'chasi, 77-“A” uy, 40-sonli kvartira uchun tuzilgan, Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasidan 2024-yil 20-iyunda tasdiqlanib, Ksh 150060 SA blankada tuzilgan, 202401714003451 raqam bilan reestrga kiritilgan ko'chmas mulk (ko'p qavatli uydagi kvartira) hadaya shartnomasining hadaya oluvchidagi nusxasi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Samarqand viloyat adliya boshqarmasidan 2021-yil 17-dekabrda 434-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan O'zbekiston Xalqaro arbitraj sudlari birlashmasining Samarqand viloyati filialining (STIR: 207343916) ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomasi va Nizomining asl nusxasi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Urgut tumanidagi “ALI BOBO EXPORT” mas'uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 311616484) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Payariq tumanidagi “SHUNQOR AXMEDOV” mas'uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 300365344) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Samarqand shahridagi “QORASUV BROILER” mas'uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 309093693) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.



TABRIKLAYMIZ! Hurmatli Olim Murtazayev!

Sizni tug'ilgan kuningiz munosabati bilan samimiy muborakkob etamiz.

Rahbarlik faoliyatingiz davomida filialimizda ko'plab mas'uliyatli vazifalar, murakkab jarayonlar va muhim islohotlar amalga oshirildi. Shunday vaziyatlarda ham siz doimo vazminlik, adolat va yuksak madaniyat bilan har bir xodimga e'tibor qaratib, jamoa bilan ishlashda insoniylik va bag'rikenglik tamoyillarini ustuvor qo'yib kelmog'dasiz.

Sizning boshqaruv uslubingiz, mas'uliyatli yondashuvingiz va jamoaga bo'lgan hurmatingiz filialimizda sog'lom ish muhitini shakllantirishga, ta'lim va ilmiy salohiyatni yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

Sizga mustahkam sog'liq, uzoq umr, oilaviy baxt, mas'uliyatli faoliyatingizda ulkan muvaffaqiyatlar, yurtimiz ravnaqi va oliy ta'lim taraqqiyoti yo'lida amalga oshirayotgan ishlaringizda zafarlar tilaymiz.

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI SAMARQAND FILIALI JAMOASI.

“Olimpiya cho‘qqilari” orqali katta olimpiya sari

*sport korrupsiyadan xoli,
shaffof bo‘lishi lozim*

Mamlakatimiz rahbari “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” asarida jamiyatda sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, jismoniy tarbiya va sportni yanada ommalashtirish dolzarb vazifalarimiz qatoriga kirishini qayd etib, sportni jadal rivojlantirish, xalqaro musobaqalarda yuksak natijalarga erishgan sportchilarni qo‘lab-quvvatlashga bundan buyon ham katta e‘tibor berilishini qayd etgan.

Darhaqiqat, bugun mamlakatimizda aholi turmush tarzini yanada yaxshilash, ta‘lim, sog‘liqni saqlash borasidagi mavjud muammo va kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Aholi, ayniqsa, yoshlarni sportga keng jalb qilish orqali sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish borasida olib borilayotgan ishlar ko‘lami yildan-yilga kengaymoqda.

Viloyatimizda ham bu borada salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda shahar va tumanlarda 21 ta (Samarqand, Urgut, Past Darg‘om va Payariq tumanlari) hamda Samarqand shahrida ikkita dan va boshqa hududlarda bittadan) sport maktabi, to‘rtta ixtisoslashtirilgan – suv sporti, yakka kurash, o‘yin turlari va yengil atletika hamda gimnastika sport maktablari hamda Samarqand, Toyloq olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlari faoliyat yuritmoqda. Bundan tashqari tadbirkorlik subyektlari tomonidan tashkil etilgan o‘nlab sport inshootlari va maydonlarda sportsevar yoshlar o‘zlari qiziqqan sport turlari bilan shug‘ullanib kelmoqda.

Quvonarlisi shundaki, ushbu maktab va muassasalarning barchasi zamonaviy bino va inshootlarga ega, zarur sport jihozlari bilan ta‘minlangan. O‘qituvchi va murabbiylar toifasi, malakasini oshirib borishi hamda ijtimoiy himoyasiga ham alohida e‘tibor qaratilgan.

Xalqimizda “Qars ikki qo‘ldan chiqadi” degan naql bor, ya‘ni birgalashib qilingan harakat albatta o‘zining ijobiy samarasini beradi. Aholining keng qatlamini sportga jalb etish, ommaviy sportni yanada rivojlantirish va targ‘ib etish borasida ko‘lami katta ishlar amalga oshirildi. Bunda mahalla tizimi orqali uyushmagan aholi qatlami va ayniqsa, yosh avlod vakillari qamrab olinishiga erishildi. Ammo tashkil etilgan ushbu musobaqalar orqali, birinchidan, qamrov darajasi kutilganidek bo‘lmadi va ikkinchidan, qatnashchilarni professional darajaga olib chiqishga erishilmadi.

Keyingi yillarda bu boradagi ishlarni yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish, mamlakatimiz sportini mutloqo yangi bosqichga olib chiqish maqsadida juda katta qadam tashlandi.

2022-yil 9-noyabr kuni davlatimiz rahbari Toshkent shahri Yashnobod tumanida umumiy maydoni 100 gektar bo‘lgan “Olimpiya shaharchasi”ni qurishga tamal toshini qo‘ygan edi. O‘tgan vaqt mobaynida bu yerda Xitoyning “CAMC Engineering” kompaniyasi hamda mahalliy quruvchi-muhandislarimiz tomonidan xalqaro talablarga javob beradigan zamonaviy inshootlar – velodrom, 12 ming o‘rinli stadion, suv sporti saroyi, jamoaviy va yakka kurash maktablari bunyod etildi. Bundan tashqari futbol, basketbol, voleybol, tennis, chim ustida xokkey, yengil atletika sport turlari uchun mo‘ljallangan 15 ta ochiq maydon, 400 o‘rinli paralimpiya yotoqxonasi, sport tibbiyoti ilmiy-amaliy markazi va boshqa ma‘muriy binolar barpo qilindi.

2025-yil 13-fevral kuni davlatimiz rahbari huzurida olimpiya va paralimpiya harakati, ixtisoslashtirilgan va ommaviy sportni yangi bosqichga olib chiqish hamda aholining jismoniy faolligini oshirishga bag‘ishlangan videoselektorda hamda joriy yil 15-16-aprel kunlari Andijon viloyatiga tashrifi davomida mas‘ul vazirlik va idoralar oldiga aniq vazifa va topshiriqlar qo‘yilgan edi. Shundan kelib chiqib, olimpiya sport turlarini yanada rivojlantirish, seleksiya ishlarini yaxshilash, sport musobaqalarini tizimli va samarali tashkil etish orqali sportchilarni har to‘rt yillikning muhim voqeligi bo‘lgan xalqaro Olimpiada va Paralimpiada musobaqalariga munosib tayyorlashga jiddiy e‘tibor qaratildi.

Ushbu maqsad yo‘lida sport vazirligi hamda O‘zbekiston Respublikasi Milliy olimpiya qo‘mitasining “Iqtidorli sportchi-yoshlarni eng quyi bo‘g‘indan boshlab aniqlash hamda seleksiya qilish bo‘yicha “Yangi O‘zbekiston Olimpiya cho‘qqilari” va “Prezident Olimpiadasi” sport musobaqalarini tashkil etish va o‘tkazish tizimini yo‘lga qo‘yish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qo‘shma qarori qabul qilindi. Mazkur qarorga muvofiq, olimpiya sport turlari bo‘yicha uch bosqichli “Yangi O‘zbekiston Olimpiya cho‘qqilari” sport musobaqalarini yuqori darajada tashkil etish va o‘tkazishning nizomi ishlab chiqildi.

Qarorda olimpiya sport turlari bo‘yicha o‘smirlar va yoshlar o‘rtasidagi O‘zbekiston chempionatlari bosqichma-bosqich “Yangi O‘zbekiston Olimpiya cho‘qqilari” sport musobaqalari shaklida o‘tkazib borilishi, mazkur sport musobaqalarining respublika final bosqichi har yili dekabr oyida Olimpiya shaharchasida “Prezident Olimpiadasi” sifatida o‘tkazilishi belgilandi.

Viloyatimizda ham mazkur musobaqaning birinchi va ikkinchi bosqichlari yuqori saviyada tashkil etildi. 2008-2010-yillarda tug‘ilgan yoshlar (15-17 yosh) o‘rtasida sportning boks, taekvondo WT, dzyu-



do, erkin kurash, yunon-rum kurashi, yengil atletika, stol tenisi, og‘ir atletika, badiiy gimnastika va basketbol 3x3 turlari bo‘yicha sport musobaqalari hududiy bosqichlari o‘tkazilib, 15754 nafar yosh orasidan mahoratlil 933 nafari saralab olindi. Saralangan mazkur sportchilar musobaqaning ikkinchi, ya‘ni viloyat bosqichida bellashdi. Ushbu bosqichda g‘olib bo‘lgan 226 nafar sportchi 23-noyabr – 4-dekabr kunlari Toshkent shahridagi “Olimpiya shaharchasi”da o‘tkazilgan respublika final bosqichida qatnashdi. Ilk bor o‘tkazilgan va qizg‘in kurashlarga boy bo‘lgan bellashuvlarda vakillarimiz 31 ta medal (8 ta oltin, 6 ta kumush, 17 ta bronza) ni qo‘lga kiritdi.

Musobaqa natijalari tahliliga ko‘ra, viloyatimiz sportchilari ko‘rsatgan natija (umumjamoa hisobida yettinchi o‘rin) mutloqo qoniqsizligi qayd etildi. Sport maktablari va markazlarda tahsil olayotgan va sport bilan muntazam shug‘ullanib kelayotgan yosh sportchilar bilan ishlash talab darajasida emasligi ko‘rsatib o‘tiladi. Shuningdek, ayrim rahbar va mas‘ullar hamda murabbiylar musobaqalarni nomi-gagina tashkil etayotganligi, ota-onalardan turli to‘lovlar (vaholanki, sport to‘garaklari to‘lovlarsiz tashkil etilishi lozim) undirilayotgani ma‘lum bo‘ldi. Bu esa, pirovard natijada nafaqat u yoki bu musobaqalarda past natijalar ko‘rsatish, balki sport jamoatchiligi o‘rtasida norozilik uyg‘otmoqda.

Shu sababli mutasaddilar sport maktablari va muassasalarida yaratilayotgan shart-sharoitlarning qadriga yetib, ulardan unumli foydalanib, iqtidorli yoshlarni topishi, ularni tarbiyalash va musobaqalarga tayyorlashga alohida e‘tibor qaratishi lozimligi ta‘kidlandi.

2025-yil 8-iyulda davlatimiz rahbarining “2028-yil Los-Anjeles shahrida (AQSh) bo‘lib o‘tadigan XXXIV yozgi Olimpiya va XVIII Paralimpiya o‘yinlariga O‘zbekiston sportchilarini kompleks tayyorlash to‘g‘risida”gi qaror qabul qilingan. Qarorda sportchilarning ijtimoiy-maishiy va moddiy ta‘minotini tizimli ravishda yaxshilab borish choralarini ko‘rish topshirig‘i ham berilgan. Bugungi kunda viloyatimizda mazkur Olimpiada va Paralimpiada o‘yinlariga tayyorgarlik olib borayotgan 61 nafar sportchi va ularning murabbiylari bilan tizimli ishlar yo‘lga qo‘yildi.

Ammo gap faqat Los-Anjeles Olimpiadasi haqida emas, balki yuqorida qayd etilgan “Yangi O‘zbekiston Olimpiya cho‘qqilari” hamda “Prezident Olimpiadasi” dasturi doirasidagi ishlarimizni ham tizimli va sifatli tashkil etishimiz lozim. Chunki yirik musobaqalarga yo‘l respublika miqyosidagi ana shu bellashuvlardan boshlanadi. Bu ishlariga mas‘ul bo‘lgan barcha toifadagi rahbar va murabbiylar o‘zlariga yuklatilgan vazifalarni ta‘masiz, korrupsiyasiz tashkil etsalar, albatta, mamlakatimiz sportida Samarqandning o‘z munosib o‘rni bo‘ladi, terma jamoalarga viloyatimizdan ko‘plab mahoratlil sportchilar qabul qilinishiga erishamiz.



Qayum SOBIROV,
Milliy olimpiya qo‘mitasi
viloyat bo‘linmasi
ijrochi direktori.

Ijodiy jarayonning ko‘plab ishlangan va ayni paytda, qat‘iy xulosalar qilinmagan noyob muammolari ko‘p. Buning boisi, har bir shaxs (ijodkor) ning o‘ziga xos va takrorlanmas olam ekanligi bo‘lsa, ajab emas. Shunday qiziqarli, ko‘p qirrali, murakkab muammolardan biri iste‘dod va talantdir. O‘zbek tilining izohli lug‘atida “Iste‘dod – ijodiy qobiliyat, layoqat, talant”; “Talant – katta qobiliyat, iste‘dod” deb ta‘riflangan. “Qobiliyat” – “biror ishga qobillik, yaroqlilik layoqat” va ikkinchi ma‘nosi “iste‘dod, talant” tarzida qayd qilingan.

ISTE‘DOD – BADIY IJOD ASOSI

Demakki, “Qobiliyat” ham, “Iste‘dod” ham, “Talant” ham bir-biriga ma‘nodosh so‘zlar qabilida tushuntirilgan, deyarli farqlanmagan. Yozuvchi O‘tkir Hoshimov ham “Daftar hoshiyasidagi bitiklar” kitobida talant va iste‘dodni bir xil mazmundagi tushunchalar sifatida ishlatadi.

U “Hayotning boshqalar ko‘rmagan tomonini ko‘rish – talant. Haqiqiy iste‘dod boshqalar ko‘rmagan narsani topadi va o‘sha “narsa” insonni, xalqni, boringki, jamiyatni qayocqa boshlashi mumkinligini tasvirlab beradi” (225-bet), deb yozadi. Ikkinchi bir o‘rinda “talant” tushunchasini shunday “tiriltiradi”:

“No‘noq haykaltarosh tirik odamni shohsupagacha chiqarib qo‘ysa ham o‘likka o‘xshaydi.

Haqiqiy haykaltarosh o‘lik jondan yasagan haykal tirikka o‘xshaydi. Talant degani shul!” (242-bet).

Demak, O‘tkir Hoshimov talant va iste‘dod deganda asar qahramonlariga “jon ato etish”, ya‘ni ularni tirik insonlarga aylantirishni tushunadi. Bu “tirik inson” boshqalarga o‘xshamagan tarzda kashf qilingan bo‘lishi va o‘zining mazmuni bilan kitobxonni ezigulikla yetaklashi lozimligini asosli ta‘kidlaydi.

Xo‘sh, iste‘dod tug‘ma bo‘ladimi yoki u hayotiy faoliyat davomida qo‘lga kiritiladimi, degan savolga O‘tkir Hoshimov ishonch bilan “... Ijodkor bo‘lish uchun eng avvalo iste‘dod kerak. Iste‘dodni esa yolg‘iz Alloh beradi” (261-bet) deydi. Bu mulohazani esda qoladigan tarzdgai rivozat bilan asoslaydi:

“Chekka qishloqlardan birida ikki qadrdon do‘st bo‘lgan ekan. Ikkovlari bir ko‘rpada tepkilashib, bir adirda mol boqib voyaga yetibdi.

Yigit yoshiga kirganda ikkovlari poyi-piyoda, chorig‘ni sudrab, katta shaharga yo‘l olibdi. Katta o‘qishga kiribdi. Taqdir taqazosini qarangki, ikkovlari sohibjamol bir qizni sevib qolibdi. Taqdir taqazosi bilan do‘stlardan biri kattagina amaldor, biri esa shoir bo‘lib yetishibdi. Taqdir taqazosini qarangki, qiz amaldorni tanlabdi. Shoir hijron alamida yonib, she‘rlar bitibdi. Dovrug‘i olis-olislariga ketibdi.

Shoir baribir shoir-da! Tili o‘tkir, so‘zi keskir bo‘ladi. Sobiq do‘sti-yu, sobiq sevgilisi kelib qolgan davralarda “do‘st”ni chandishdan o‘zini tiyolmas ekan. Kunlardan birida ayol bunday kamsitishlarga chidolmay, aytibdi: - Menga, qara! Seni shoir qilgan men bo‘laman!

Menga bo‘lgan muhabbating seni shoir qildi. Agar men bo‘lmasam, sen shoir bo‘lmas eding! Qachongacha erimni kalaka qilasan?

Shoir javob qilibdi:

- To‘g‘ri, men senga bag‘ishlab ko‘p she‘rlar yozdim. Ammo sening muhabbating hammani shoir qilishga qodir bo‘lsa, nega yoningda o‘tirgan to‘nka shu paytgacha shoir bo‘lmadi?

...Aytilshlaricha bu ulug‘ Ozarbayjon shoiri Samad Vurg‘un ekan”.

Bu fikrlar bilan O‘. Hoshimov iste‘dodning yombi oltindek yaxlitlashishi va o‘tkir (keskir) ligiga asos beradigan mehnatni tamoman rad etmaydi; balki “Chinakam” ijodkor bo‘lish uchun odamda iste‘dod”dan tashqari “bilim, mehnat, hayot tajribasi, izlanish va albatta... Vijdon bo‘lishi kerak...” (239-bet)ligini ta‘kid qiladi. Iste‘dod egasining “Qalbi qog‘ozdek oppoq, qog‘ozdek lovilab yonadigan odamdangina chinakam adib chiqishi”(223-bet)ni uqtiradi.

“Iste‘dod” qobiliyatlar yig‘indisidan iborat bo‘ladi va uning egasi, muayyan sohaning ustasi, komil “piri” darajasiga ko‘tariladi. Sohaning har qanday qiyinchiligini ilm va tafakkur bilan hal etadi; bugungi holati va darajasini yanada yaxshilaydi, boyitadi. Jamiyatning talabiga muvofiqlashadi, boshqalar tomonidan ochilgan dunyoning sifatiga amal qiladi va shuning shukronasi bilan yashaydi. Millatning e‘tiborini o‘ziga qaratadi. Minglab odamlarga xos xislatni o‘zida tashiydi.

Shuni alohida ta‘kidlash lozimki, qobiliyat ham, iste‘dod ham, talant ham, daholik ham Allohning inoyatidir. Shu xislat egalarining mehnatlariga yarasha yaratilgan mo‘jizakorlikdir.

Xullas, qobiliyatli va iste‘dodli insonlarsiz, talant va daholarsiz jamiyat ham, insoniyat ham istiqbolini yarata olmaydi.

Go‘zal UMUROVA,
Samarqand davlat chet tillar instituti professori

SHU OYDA TAVALLUD TOPGANLAR

18-DEKABR

Olim MURTAZOEYEV – 1952-yilda Jomboy tumanida tug‘ilgan. Iqtisod fanlari doktori, professor.

20-DEKABR

Usmon SANAGULOYEV – (1940-2020) G‘ijduvon tumanida tug‘ilgan. Filologiya fanlari doktori

21-DEKABR

Rustam MANSUROV – (1913-1996) Samarqand shahrida tug‘ilgan. O‘zbekiston Xalq artisti.

25-DEKABR

Hamid MANSUROV – (1925-2013) Samarqand shahrida tug‘ilgan. Tibbiyot fanlari doktori, akademik.

Ali ABDULQOSIMOV

– (1934-2023) Forish tumanida tug‘ilgan. Landshaftshunos olim. «El-yurt hurmati» ordeni sohibi.

26-DEKABR

Vahob RAHIMOV – (1934-2014) Samarqand shahrida tug‘ilgan.

O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi.

28-DEKABR

Doni ZOKIROV – (1914-1985) Samarqand shahrida tug‘ilgan. O‘zbekiston xalq artisti, kompozitor.

29-DEKABR

Ibrohim NURMONOV – (1936-2007) Past Darg‘om tumanida tug‘ilgan. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san‘at arbobi.

30-DEKABR

Ravshan G‘ULOMOV – 1960-yilda Samarqand tumanida tug‘ilgan. Sambo bo‘yicha xalqaro toifadagi sport ustasi. Dzyudo, kurash bo‘yicha sport ustasi. Sambo bo‘yicha jahon kubogi g‘olibi. Besh karra O‘zbekiston chempioni, Sambo bo‘yicha faxriylar o‘rtasida jahon chempioni.

31-DEKABR

Akbar OTAXO‘JAYEV – (1926-1994) Turkiston shahrida tug‘ilgan. Fizik olim. O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi.



MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O‘zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 13 796 nusxada chop etildi. Buyurtma Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, **REKLAMA VA E‘LONLAR:** (66) 233-91-56

BO‘LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug‘ Tursunov ko‘chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo‘limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. **Korxona manzili:** Samarqand shahri, Spitamen ko‘chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da. Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

G‘.HASANOV.

Navbatchi:

T.SIDDIQOV.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda